

**PROFESSIONAL TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA UMUMKASBIY VA SOHAGA OID
TEXNIK-TEXNOLOGIK BILIM VA KO‘NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH**

U.M. Yarlakabov

JizPI, Professional ta’lim kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10810898>

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi va mustaqil mehnat faoliyatini amalga oshirishning zaruriy sharti bo‘lgan texnik-texnologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslangan. Texnik-texnologik kompetentlik tushunchasining mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: texnik-texnologik komponententlik, professional ta’lim, bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisi, pedagogik shart-sharoitlar, uslubiy ta’milot, amaliy –yo‘naltirilgan tashkil etuvchi.

Аннотация. В основу статьи положены педагогические условия формирования технико-технологической компетентности, которая является компонентом физической компетентности и необходимым условием реализации самостоятельной работы будущих учителей профессионального образования. Раскрыта сущность понятия технико-технологической компетентности.

Ключевые слова: технико-технологическая компетентность, профессиональное образование, будущий педагог профессионального образования, педагогические условия, методическое обеспечение, практико-ориентированный организатор.

Abstract. The article is based on the pedagogical conditions for the formation of technical and technological competence, which is a component of physical competence and a necessary condition for the implementation of independent work of future vocational education teachers. The essence of the concept of technical and technological competence is revealed.

Keywords: technical-technological competence, professional education, future teacher of professional education, pedagogical conditions, methodological support, practical-oriented organizer.

Professional ta’lim – bu ta’lim oluvchilarda ma’lum bir mutaxassislik va kasblar bo‘yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzlusiz ta’lim tizimi hisoblanadi. Professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarining tanlagan kasblari bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan professional ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Professional ta’limning hozirgi eng muhim muammosi bitiruvchilarni ko‘p funktsiyali adekvat kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Oliy ta’lim muassasalarining professional ta’lim (sohalar bo‘yicha) yo‘nalishini bitirgan o‘qituvchilargina shunday kadrlarniing yetishib chiqishini ta’minlaydilarki, ular kasbiy faoliyatda shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o‘z o‘rinlarini topishda ijodiy izlanadilar. Professional ta’lim o‘qituvchisi umumkasbiy va sohaga oid texnik-texnologik bilim va ko‘nikmalarining shunday majmuasiga egaki, u o‘zining tuzilishi va taqdim etish shakliga ko‘ra o‘rta umumta’lim məktəb fan o‘qituvchisining xuddi shunday kompetentsiyalari majmuasidan bir müncha farq qiladi. Professional ta’lim o‘qituvchilarining professional fikr yuritishi har xil belgilər bilan farqlanadi. Bunday belgilər orasıda hozirgi paytda sohaga oid va ijtimoiy-pedagogik fikr yuritish orasıda keşadıgan integratsiya samarodorligining oxirigacha o‘rganilmagani bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlar kuzatıldı.

Professional ta’lim o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xos belgilarini o‘rganishda his qilish jarayoni (rang, tovush, vaqt, hid va boshqalar), diqqati (biologik, tabiiy va ijtimoiy, texnik-texnologik jarayonlar va boshqalarni kuzatishi), nutqi - professional yo‘naltirilgan leksikasi va boshqalar katta ahamiyat kasb etadi.

Professional ta’lim o‘qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta’minalash zarur. Professional ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta’lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o‘zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon professional ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o‘rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa professional ta’lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.

Texnik-texnologik kompetentlik bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisining zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ishlashga qobiliyatini va tayyorligini baholashning asosiy me’zonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Aynan shakllangan texnik-texnologik kompetentlik unga o‘zlashtirilgan bilimlar va shaxsiy tajriba asosida amaliy va nazariy xarakatlarni tez, aniq, ongli bajarish imkonini beradi.

Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchi shaxsi turli tuman motivlar va intilishlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun amaliyatda motivatsiyaning metodlaridan faqat bittasidan foydalanish mumkin emas. Biz ko‘rib chiqayotgan holatda motivatsion-qadriyatli komponentning imkoniyatini auditoriyadan tashqaridagi faoliyat mos resuslar imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga kengaytirish kerak.

Bizning nuqtai nazarimizcha motivatsion-qadriyatli mexanizmlarni jalb etish uchush ko‘rgazmalilik zarur. Shuning uchun ham talaba tahsil olayotgan yo‘nalishga mos ishlab chiqarish sohasi haqidagi nazariy materialni bayon etishni ishlab chiqarish ekskursiya jarayonida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ekskursiya vaqtida barcha talabalar o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘rishlari orqali ular ishlab chiqarish mehnatining murakkabligi va ko‘pqirraligini his qilishlari mumkin bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlillar amaliyotni o‘tash vaqtida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga quyudagilarni kiritish mumkinligini ko‘rsatdi: talabalarning moslashishi va ijtimoiylashishi; shaxning kommunikativ sifatlariga asoslangan o‘z-o‘zini taqdim etish; texnologik jarayonni amalga oshirish uchun hisoblashlarni bajarish imkoniyati; murakkab mehnat usullarini bajarish; texnologik jarayonni uskunalar, xom-ashyolarining yangi turlarini hisobga olib tashkil etish; me’yoriy hujjatlar bilan ishlashga qobiliyatlik va boshqalar.

Ko‘rsatilgan muammolar, so‘zsiz turli xil tabiatga ega; birlari ob’ektiv va tatqiqotimiz doirasida ularni hal qilishni imkoniyati mavjud emas. Ba’zilari esa sub’ektiv tabiatga ega. Bu bizga ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini topish imkonini beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasining ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘zaro ta’sirlashuv muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonning zarurati anketa so‘rovi, shuningdek o‘qituvchi va talabalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijasida tasdiqlangan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi vaqtida oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularda tayanch texnologik komponentsiyalarini shakillantirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham texnik-texnologik komponentlikni shakillantirish jarayoni keyinchalik o'z potentsialini mustaqil ishlab chiqarish va kasbiy pedagogik faoliyatda amalga oshirishga qobiliyatli professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Гузанов Б.Н. Профессиональная мотивация студентов вуза в процессе интегрированного производственного обучения: монография // Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2016. 233 с.
2. Ксенофонтова А.Н. Развитие технологической компетентности педагога в инновационной деятельности школы // Мир науки. 2017. Том 5. № 6. С. 1-8. URL: <https://mir-nauki.com/PDF/93PDMN617.pdf>.
3. Маркова С.М. Технологизация педагогического процесса профессионального образования // В мире научных открытий. 2014. № 3. С. 286-302.
4. Немов Р.С. Психология: словарь-справочник: в 2 ч. Москва: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. 352 с.
5. Нигматова Г.З. Современные средства оценивания образовательных результатов // Ученые записки Казанского университета. Гуманитарные науки. 2013. № 6. С. 220-227.
6. Федорова О.Ф. Некоторые вопросы активизации учащихся в процессе теоретического и производственного обучения. Москва: Высшая школа, 1970. 301 с.
7. Цыплакова С.А. Проектная деятельность педагога профессионального обучения // Казанская наука. 2014. № 5. С. 167-171.
8. Шкунова А.А. Технологии коммуникативного взаимодействия в системе педагогического менеджмента // Инновационные технологии управления: материалы Всероссийской научно-практической конференции. ФГБОУ ВПО «Нижегородский государственный педагогический университет им. К. Минина». Нижний Новгород, 2014. С. 125-130.
9. Яковлев Е.В. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов. Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010. 316 с.
10. Yarlakabov U.M. Talabalarda texnik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Kasb-hunar ta'limi. -Toshkent, 2008.- № 6.-B. 9-10. (13.00.05. №19).
11. Yarlakabov U.M. Kasb ta'limida texnik bilim va o'qitish texnologiyasining o'rni // Fan-texnika, ta'lim va texnologiyalar: dolzarb muammolar va rivojlanish tendentsiyalari. Respubika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Jizzax, 2017.-1-qism.-B 281-283.